

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 312 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinislo Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumaye va	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятowa Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi.....	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовова Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Меры по привлечению прямых иностранных инвестиций в национальные экономики.....	243
Ахмедова (Жабборовна) Нилуфар Икболжон кизи	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	



O'ZBEKISTONNING JOZIBADOR INVESTITSIYA MUHITINI YARATISHDA HUQUQIY ASOSLARNI YANADA TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY VA AMALIY ZARURIYATI

Oybek Elmuratov

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi direktori o'rinbosari,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining amaldagi "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risidagi" Qonunni va "Investitsiyalar to'g'risida"gi muhokamaga qo'yilgan yangi qonun loyihasi tahlil qilingan hamda amaliyotda mavjud soxaga oid muammolarni hal etishda yangi tahrirdagi qonunga kiritilishi zarur bo'lgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Investitsiya, investor, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, investitsiyaviy nizo, investitsion loyiha xalqaro tashkilot, davlat-xususiy sherikchilik, ustuvor sohalar, negativ ro'yxat.

Abstract: The article examines the current Law of the Republic of Uzbekistan "On Investments and Investment Activities" and the discussed law project "On Investments", and also develops proposals, which are necessary to decide practical problems in the field of investment, which should be included in the new edition of the law.

Key words: Investments, investor, investment environment, attracting investments, investment conflict, investment project, international organization, public-private partnership, priority directions, negative list.

Аннотация: В статье, исследуются действующий Закон Республики Узбекистан "Об инвестициях и инвестиционной деятельности" и обсуждаемый новый законопроект "Об инвестициях", а также разработаны предложения необходимые для решения практических проблем в области инвестиции, которые следует внести в новую редакцию закона.

Ключевые слова: Инвестиции, инвестор, инвестиционная среда, инвестиционная привлекательность, инвестиционный конфликт, инвестиционный проект, международная организация, государственно-частное партнерство, приоритетные направления, негативный список.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalar hajmining ham barqaror o'sib borish tendensiyasi muhim hal qiluvchi omil hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinadigan investitsiyalar hajmi, shartlarining qulayligi hamda ularning samaradorligi bevosida mamlakatda qulay investitsiya muhitini ta'minlab beradigan, investor va investitsiya jarayonlari ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qiladigan huquqiy asosning yaratilganligiga bog'liq.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda kuzatilayotgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalar, yetakchi tarmoqlar, ayniqsa energetika sohasida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar, xususiylashtirish jarayonlari, davlat monopoliyasining qisqarishi va raqobat muhitining yaxshilanishi kabi o'zgarishlar investitsiya sohasidagi qonunlarning takomillashib borishi mahsuli deyish mumkin.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda kuzatilayotgan keskin o'zgarishlar va burilishlar mamlakatning investitsiya muhitini barqaror ushlab turish hamda jozibadorligini yanada oshirishni, o'z navbatida sohaga oid qonunchilikni doimiy isloh qilib borish va iqsodiy chaqiriqlarga moslashtirishni talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar to'g'risida" Qonunining yangi tahriri loyihasi regutaion.gov.uz portalida keng jamoatchilik muhokamasiga havola etildi.

Mazkur maqolaning maqsadi yangi tahrirdagi Qonun loyihasiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birgalikda mamlakatimiz investitsiya muhitini yaxshilash va yuzaga kelgan bir qator muammolarni hal etishda muhim hisoblangan ilmiy takliflarni ishlab chiqish iborat.



MAVZU BO'YICHA QISQACHA ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini yanada oshirishda muhim hisoblangan huquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirib borish masalalari har doim iqtisodchi olimlarning va tadqiqotchilarning nigohida bo'lishgan.

Investitsiya muhitining huquqiy asoslari masalasi xorijlik iqtisodchi-olimlardan N.Doronina, A.Berngardt, A.Blank, V.Bocharev, J.Altman, P.Vaxrin, A.Neshitoy, V.Kovalev, P.Samuelson, D.Lorens, L.Gitman, U. Sharp kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan.

O'zbekistonlik olimlardan A. V. Vahobov, D.G'ozibekov, N.G'. Karimov, N.Jumayev, O.Sabirov, N.Levashin, M.Angelidi, N.Xaydarov, N.Qo'ziyeva, E.Nosirov, U.Burxanov va boshqalarning ilmiy asarlarida investitsiya muhitini yaxshilashda qonunchilikdagi muammolar tadqiq qilingan.

Xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan investitsiya muhiti jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar, xususan qonunchilikda belgilangan kafolatlar, imtiyoz va preferensiyalarning samarasi tahlil qilingan, investitsiya muhitini yanada yaxshilashga erishi yuzasidan qator tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada, mazkur mavzu bugungi kunda ham o'ta dolzarb hisoblanadi. Chunki yirik iqtisodiy integratsiyalar o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli muhit va global inqiroz tahdid solib turgan sharoitda investitsiya muhitining barqarorligini va jozibadorligini ta'minlashning huquqiy asosi hisoblangan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunning ahamiyati muhim hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb qilish va rag'batlantirish, investorlar huquqlarini kafolatlash, investitsiya loyihalari iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va undagi mavjud muammolarni to'liq tahlil etish orqali qonunchilikni isloh qilish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOTDA QO'LLANILGAN USLUBLAR

Ushbu maqolada muallif mavzuga oid asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilib, mamlakatimizdagi investitsiya jarayonlari va investitsiya muhitiga tegishli muammolarga tayangan holda tadqiqotni olib borgan. Shuningdek, ishda baholash, guruhlash, tarkibiy, qiyosiy, omilli va trendli tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar to'g'risida"ga Qonuni yangi tahrirdagi loyihasi regutaion.gov.uz portalida keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Amaldagi "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risidagi" Qonunning qabul qilinganiga nisbatan ko'p vaqt o'tmasdan (2020 yil yanvar oyida kuchga kirgan) uning yangi taxrirda qabul qilinishiga zaruriyat tug'dirgan asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- *birinchidan*, amaldagi Qonun muhim investitsiya turlari hisoblangan Davlat-xususiy sherikchilik (DXSH), Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTOB), Konsessiyachilik faoliyati (KF) va Portfel investitsiyalar (PI) ni o'z ichiga olmaydi, lekin ko'pchilik rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qonunlaridan farqli o'laroq davlat investitsiyalarini qamrab olgan;
- *ikkinchidan*, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar maqomi ulardagi xorijiy investorlar ulushining kamida 15 foizlik chegarasi bilan belgilangan bo'lib, mazkur ko'rsatkich sohadagi nufuzli xalqaro tashkilotlar tavsiyalari va takomillashgan qonunchilikka ega davlatlar amaliyotida 10 foizni tashkil etadi;
- *uchinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi PF-3594-sonli "To'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi Farmonida belgilangan to'g'ridan to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar uchun beriladigan imtiyozlar joriy etiladigan yigirma ikkita iqtisodiyot tarmoqlari ro'yxati o'rtasidagi nomutanosiblik mavjud;
- *to'rtinchidan*, investitsiyalarni jalb etishni amalga oshiruvchi sohadagi vakolatli davlat organlari bilan boshqa davlat boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyatlari funksiyalari o'rtasidagi noan-iqlaklar ko'zga tashlanadi;
- *beshinchidan*, O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investor tomonidan investitsiya faoliyatini amalga oshirish chog'ida hukumat bilan yuzaga keladigan investitsiyaviy nizolarni hal etish maqsadida xalqaro sudlarga murojaat qilish huquqi yuridik jihatdan chegaralanganligi va amaliy jihatdan imkonsizligi xorijiy investorlarda ishonchsizlikni yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatimiz investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiy xorijiy va mahalliy investitsiya oqimlarini ko'paytirish, investorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish inson kapitali va iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Investitsiyalar, sanoat va



savdo vazirligi tomonidan Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda xorijiy investorlar bilan hamkorlikda "Investitsiyalar to'g'risidagi" qonunning yangi taxrirdagi loyihasi ishlab chiqildi va unga ko'ra:

- xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan barcha xususiy investitsiyalar, jumladan DXSH, MTOB, KF va PI nisbatan qo'llaniladi;
- barcha atamalar xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan atamalar bilan uyg'unlashtirildi;
- loyihalar bilan manzilli ishlash va imtiyozlar berish maqsadida ustuvor investitsiya loyihalarining kichik (300 mingdan 3 million AQSH dollariga), o'rta (3 milliondan 10 million AQSH dollarigacha), yirik (10 milliondan 100 million AQSH dollarigacha) va strategik yirik (100 million AQSH dollaridan yuqori) kabi turlari kiritildi;
- investorlarning mahalliy banklardagi xorijiy valyutadagi mablag'larida valyuta kurslari o'zgarishidan paydo bo'ladigan daromadga nisbatan soliq majburiyatlari qo'llanilmasligi belgilandi;
- investitsiya faoliyati uchun iqtisodiyotning ustuvor sohalari va ayrim chegaralanishi mumkin bo'lgan sohalar negativ ro'yxati (negative list) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan belgilanishi, shu bilan birga ayrim davlatlarda qo'llaniladigan xorijiy investorni oldindan o'rganish yoki skrining o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatildi;
- xorijiy investorlar bilan ishlashdagi institutsional shartlar aniq belgilandi. Masalan, Xorijiy investitsiyalar agentligi huzuridagi investorlar markazi "yagona darcha" tamoyilida xizmat ko'rsatishi, investitsiya bitimi shakliga rozi bo'lgan investorga investitsiya menedjeri birlashtirilishi va investitsiya taklifi ustuvor investitsiya loyihasi bo'yicha vakolatli organga, DXSH doirasidagi ustuvor investitsiya loyihasi bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligiga, Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga yuborilishi belgilandi;
- Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining investitsiyaviy ombudsen sifatida belgilanishi va o'rta va undan yuqori ustuvor investitsiya loyihalarini davlat nazorat organlari tomonidan tekshirish ushbu vazirlik bilan kelishilgandan keyingina amalga oshirilishi belgilanmoqda;
- investitsiyaviy nizolar ular paydo bo'lgandan boshlab vakolatli organ xabaridan keyin bir yuz sakson kun ichida hal bo'lmagan taqdirda xorijiy investor o'z hoxishiga ko'ra:
 - a) mahalliy sud organlariga,
 - b) Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro savdo huquqlari (YUNSTRAL qoyidalar) arbitraj komissiyasi reglamentlariga ko'ra xalqaro arbitrajga,
 - d) Investitsion nizolarni tartibga solish xalqaro markazi to'g'risidagi konvensiyaga (MTSUIS) muvofiq Investitsion nizolarni tartibga solish xalqaro markaziga yoki tomonlarning investitsiya bitimida kelishilgan tartib va qoidalarga ko'ra xalqaro arbitrajga berish huquqi ta'minlanadi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha qonunchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirda ishlab chiqilgan Qonun loyihasiga kiritilgan me'yorlar ijobiy natijasini beradi. Shu bilan birga yangi tahrirdagi Qonun loyihasiga kiritilishi lozim bo'lgan, mamlakatimiz investitsiya jozibadorligini yanada yaxshilashga xizmat qiladigan quyidagi takliflarni shakllantirdik:

1. Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 83-son bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga asosan Respublikamizning milliy barqaror rivojlanish maqsadlari belgilanganligini hisobga olib Qonun loyihasi matnidan "Birlashgan millatlar tashkiloti barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish" jumlasini chiqari tashlash;
2. Qarz mablag'lari investitsiya resurslariga kirmasligini inobatga olgan holda Qonun loyihasining 4-moddasida sanab o'tilgan investitsiya turlari ro'yhatidan "uzoq muddatli zayomlar hamda qarz va zayomlarning boshqa turlari" so'zlarini olib tashlash;
3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ustuvor tarmoqlar ro'yxati (positive list), investitsiyalar uchun taqiqlangan tarmoqlar ro'yxati (negative list), o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan Davlat investitsiya strategiyasini ishlab chiqish shartlarini belgilash.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. lex.uz/docs/4664142
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunining yangi tahrirdagi loyihasi, regutaion.gov.uz portali.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 y. PQ-300-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi. lex.uz/docs/6600413
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.08.2018-y. PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. lex.uz/docs/3845273
5. Jamolov J.J. "O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llari" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. yanvar-fevral, 2022-yil, (№ 00057).
6. Blank A. Investitsii. – M.: Delo, 2008. – 260 s.
7. Karimov N.G'. "Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari" Toshkent -"Fan va texnologiyalar" nashriyoti 2007-yil.
8. Шарп У. Инвестиции. Пер. с англ. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 744 с.
9. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. –Toshkent: Moliya, 2003. – 332 b.
10. <https://invest.gov.uz/> O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi sayti ma'lumotlari.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.